
“Soybo‘yi” mahallasining infratuzilmasi yanada yaxshilanmoqda

Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investisiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq Qo‘shtepa tumanidagi “Soybo‘yi” mahallasining infratuzilmasi yanada yaxshilanmoqda.

Xususan, ikkinchi loyihaga ko‘ra elektr ta‘minotini yaxshilash maqsadida 6 dona yangi transformator punktlari va 6,2 km uzunlikda yangi elektr uzatish tarmoqlari qurib bitkazildi. Ayni kunlarda elektr ta‘minoti korxonasi mutaxassislari tomonidan aholi xonadonlarini yangi tortilgan tarmoqlarga ulash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.





2024-10-29 08:22:35